

Prezident ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-fevral kuni ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tahlil etish, eng dolzarb vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 21-apreldagi farmoniga muvofiq, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qayta tashkil etilib, uning zimmasiga ekologik holatni yaxshilash, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash borasida ko'plab vazifalar qo'yildi.

Shuningdek, 2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tubdan yaxshilash yuzasidan kompleks dastur qabul qilinib, moliyalashtirish manbalari aniq belgilab berildi.

Tizimda 13 ta "Toza hudud" davlat unitar korxonasi va ularning 174 ta tuman (shahar) filiali tashkil etildi. Ushbu unitar korxonalar balansiga 1 ming 300 ta maxsus texnika, 1 mingta chiqindi to'plash maydonchasi, 5 ming 800 ta konteyner va 172 ta poligon o'tkazildi.

O'tgan yili qo'shimcha 305 ta chiqindi to'plash maydonchasi qurilib, 2 mingdan ziyod konteyner bilan jihozlandi. Respublika bo'yicha jami 295 ta poligon to'liq xatlovdan o'tkazilib, ularning kadastri tuzildi, 97 ta chiqindi poligoni tartibga keltirildi. Qo'mita qoshida maishiy chiqindilar bilan bog'liq masalalarni nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etildi.

Biroq, bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinadigan ishlar juda ko'p. Masalan, yurtimizda 53 foiz aholiga sanitar-tozalash xizmati ko'rsatiladi, xolos. Shundan atigi 15 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Deyarli barcha qishloqlarda maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va tashish umuman yo'lga qo'yilmagan.

Yig'ilishda shu kabi kamchilik va muammolar tanqidiy tahlil qilinib, tizim oldidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga tegishli vazirliklar bilan birgalikda shaharlarda chiqindi yig'ish shoxobchalarini tartibga solish, qishloq aholi

punktlarida sanitar-tozalash xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Ushbu dasturda ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi sonidan kelib chiqib, chiqindi yig'ish maydonchalarini namunaviy loyihalar asosida optimal tashkil etish, chiqindi tashish maxsus texnikalari xaridini ko'paytirib, qishloq aholisini sanitar-tozalash xizmatlari bilan bosqichma-bosqich qamrab olish, davlat-xususiy sheriklik prinsipi asosida "Toza hudud" unitar korxonalari buyurtmasiga ko'ra sohada tadbirkorlar ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari nazarda tutiladi.

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash haqida so'z borar ekan, Prezidentimiz xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va keng joriy etish zarurligini ta'kidladi.

Germaniya, Belgiya, Yaponiya, Gollandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda 60-65 foiz maishiy chiqindi qayta ishlanadi, 20-25 foizidan energiya olinadi, qolgan qismi yoqiladi. Ya'ni chiqindini poligonlarda ko'mishga ham ehtiyoj yo'q, dedi Shavkat Mirziyoyev. Buning natijasida yer resurslari tejaladi, iqtisodiy samaraga erishiladi va atrof-muhitga salbiy ta'sir kamayadi.

Shundan kelib chiqib, joriy yilda mamlakatimizning 9 ta shahrida chiqindini yig'ish va qayta ishlash klasterlarini ishga tushirish bo'yicha topshiriq berildi. Bu borada Surxondaryoda tashkil etilgan klaster faoliyati namuna qilib ko'rsatildi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysi, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida amalga oshiriladigan chiqindini qayta ishlash loyihalari bo'yicha investorlar bilan bitimlar imzolash, loyiha hujjatlarini tayyorlash va moliyalashtirish yuzasidan "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish ishlarini tizimli tashkil etish masalasi ham muhokama qilindi. Plastik, polietilen va boshqa qadoqlash materiallarini to'plash, utilizatsiya qilish yoki qayta ishlashga topshirishda ishtirok etayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish zarurligi qayd etildi.

Atrof-muhit ifloslanishining oldini olish sohasida davlat nazoratini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Masalan, Andijon, Angren, Buxoro, Navoiy, Farg'ona, Olmaliq, Bekobod, Chirchiq, Toshkent va Nukus kabi sanoatlashgan shaharlarda havoning chang bilan ifloslanish darajasi sanitar me'yordan o'rta hisobda 2,7 barobar ortgani kuzatilgan.

Shu bois, Ekologiya davlat qo'mitasi mutasaddilariga xalqaro tajriba asosida atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Yig'ilishda o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona

foydalanish, muhofaza etiladigan hududlarni kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Masalan, o'tgan yili hayvonot va o'simlik dunyosi bo'yicha 3 ming 782 ta huquqbuzarlik va brakon'erlik holatlari aniqlangan. 8 ta davlat qo'riqxonasidan 6 tasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasida, 2 tasi Geologiya va Ekologiya qo'mitalari tasarrufida bo'lib, ularni boshqarishda yagona tizim mavjud emas. Shu bois, qo'riqxonalarni yagona davlat organiga birlashtirish masalasini o'rganib, asosli takliflar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Chiqindilarni to'plash va tashish ishlarini doimiy nazorat qilish, aholining bu boradagi madaniyati va mas'uliyatini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bu boradagi ishlar zamirida odamlarning sog'lig'i, turmush farovonligi yotibdi. Shu bois, bu masala bilan har bir tumanda va doimiy shug'ullanish kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

president.uz